

# Kichik Biznes Moliyaviy Resurslaridan Samarali Foydalanish Bo'yicha Xorij Tajribasi

*Ketmanov Avazbek Malikovich<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes sub'yektlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanish borasidagi xorijiy tajribalar batafsil tahlil qilingan. Xususan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun ishlab chiqqan moliyaviy mexanizmlari, dasturlari va davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordam choralari o'rganilgan. Ushbu davlatlarda kichik biznesni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar kichik korxonalar iqtisodiy o'sish va barqarorlikka erishishida muhim rol o'ynaydi. Maqolada davlatning kichik biznesni rivojlantirishdagi o'rni va moliyaviy yordam ko'rsatish usullari tahlil qilinib, bu tajribalarni O'zbekistonga moslashtirish imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar va investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati ham ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy resurslar, moliyaviy strategiyalar, mahsuldorlik, rentabellik, yalpi daromad, kichik biznes, barqaror rivojlanish, tadbirkorlik, moliyaviy mexanizm.

**Kirish.** Rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonida kichik biznes korxonalarining ulushi 90 foizdan oshadi. Kichik biznes an'anaviy ravishda har qanday mamlakat iqtisodiyotining faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ushbu yo'nalish korxonalarini xizmat ko'rsatish sohasi, qishloq xo'jalik sohasi va boshqa tarmoqlarda innovatsiyalarni ishlab chiqarish va joriy etishda harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Eng yuqori texnologik moslashuvchanlikka qaramay, kichik biznes bozordagi tebranishlar va inqirozlariga ko'proq moyil bo'lib, aksariyat yirik korxonalarga xos bo'lgan aksiyadorlik kuchiga ega emaslar. Kichik biznes korxonalarini muhim ijtimoiy funksiyaga ega bo'lib, mamlakatlardagi aholining qariyb 50-60 foizini ish bilan ta'minlaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiyotidagi kichik biznes sektorining hissasi nafaqat YAIMda, balki mamlakatning ishlovchi aholi sonida ham katta qismni tashkil etadi. AQSHda kichik biznesni rivojlantirish maqsadida bir qancha markazlar faoliyat yuritadi, ushbu markazlar kichik biznes faoliyatini yo'lga qo'yish, yuritish va boshqa maqsadlar uchun konsultatsiya beradi. Shu bilan birga moliyaviy resurslarini shakllantirishda ham ko'maklashadi, ya'ni davlat tashkilotlari tomonidan moliyaviy yordam olish uchun ularga ko'maklashadi. Shuningdek, markazlar tomonidan kichik biznesni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun o'quv seminarlar tashkil qiladi va ularni har bir yo'nalish bo'yicha qo'llanmalar bilan tanishtiradi.

**Adabiyotlar taxlili:** Shuningdek, kichik biznesning AQSH mehnat bozoriga ta'siri juda muhim, kichik biznes sub'yektlarining 80 foizdan ortig'i xodimlarsiz ishlayotgan bo'lsa-da, bu sub'yektlarda jami 61,6 million kishi ishlaydi. Bu raqam butun AQSH ishchi kuchining 45,9 foizni tashkil qiladi, ayniqsa kichik korxonalarining 20 foizdan kamrog'ida ishchilar borligini hisobga olsak<sup>2</sup>, bu juda ajoyib statistika hisoblanadi. Bu statistik ma'lumotlar kichik korxonalarining yangi ish o'rinlari yaratishdagi ahamiyatini, balki AQSH iqtisodiyotini barqarorlashtirishdagi rolini ham ko'rsatib turibdi.

AQSHning kichik biznes sektoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning 80 foizidan ortig'i yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lib hisoblanadi. Mamlakatdagi 33,3 million ta kichik biznes sub'yektlaridan 27,1 million tasi faqat o'z egalari tomonidan boshqarilib, bu AQSHda yakka tartibdagi

<sup>1</sup> Andijon viloyati Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi sho'ba boshlig'i

<sup>2</sup> U.S. Small Business Administration Office of Advocacy (AKSH Kichik biznesni boshqarish b'uyicha advokatlik idorasi) – <https://advocacy.sba.gov/>



tadbirkorlarning ko‘pligini ko‘rsatib beradi<sup>3</sup>. Ko‘plab kichik korxonalariga xos mustaqillik va o‘z-o‘ziga ishonish xususiyatini ko‘rsatib, ularning AQSH iqtisodiyotidagi o‘ziga xos roli va hissasini ishchi kuchisiz ham ko‘rsatib kelmoqda. Xususan, kichik korxonalarining 16 foizida 1 nafardan 19 nafargacha ishchilar ishlaydi, bu 5,4 milliondan ortiq biznesga to‘g‘ri kelsa, yana bir qismi 648 ming ta korxonada ishchi kuchi soni 20 nafardan 499 nafargacha to‘g‘ri keladi<sup>4</sup>. Bu statistik ma’lumotlar kichik biznes korxonalarida xodimlar sonining taqsimlanishi haqida tushuncha berib, sezilarli darajada ko‘proq ishchilarni ish bilan ta’minlashiga ham guvoh bo‘lish mumkin.

AQSHda kichik biznes o‘z mablag‘lari yoki bank kredit mablag‘laridan moliyaviy resurs sifatida foydalanadi. Ushbu mamlakatda kichik biznes korxonalarini uchun tijorat sanoati (commercial industrial (C&I)) va tijorat ko‘chmas mulk (commercial real estate (CRE)) kreditlari beriladi.

So‘ngi yillarda banklarga tayanadigan kichik biznes uchun qarz olish xarajatlarini oshirdi, chunki banklarda foiz stavkalarining ko‘tarilishi moliyalashtirish ehtiyojlarini qimmatlashtirdi. Oxirgi bir yarim yil ichida tarmoq banklari kichik biznes uchun tijorat sanoat va tijorat ko‘chmas mulk kreditlariga talabning kuchayish holatlari hamda uning zaiflashish holatlari ham kuzatilgan. Bugungi kunda kreditga talab pandemiyaga qaraganda ko‘proq pasaygan. Kichik biznes uchun kreditlarning stavkalari barcha kreditorlar orasida pandemiyadan oldingi stavkalar bilan solishtirganda pasayganligini ko‘rish mumkin.

Shu bilan birga, AQSHdagi kichik biznes korxonalarini moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish uchun inflyasiya darajasini ham hisobga olishadi. Mamlakatda iqtisodiy muhit rivojlanishda davom etar ekan, kichik biznes inflyasiya bosimiga moslashish muammosiga duch keladi. Misol uchun, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yil noyabrda 1 dollar 2023 yil noyabrda kelib 1,03 dollarga teng bo‘lishini hisobga olgan holda o‘z moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yadi. Ushbu o‘zgarish ish haqi va moddiy xarajatlardan tortib, kommunal xizmatlar hamda mulk solig‘igacha bo‘lgan biznes yuritishning turli jihatlari ta’sir qiladi.

AQSHda kichik biznes korxonalarini pandemiyadan so‘ng moliyaviy resurslardan samarali foydalanish maqsadida, xarajatlar strategiyasini qayta ko‘rib chiqib, unga o‘zgartirish kiritdilar. 2022 yildagi aniq ma’lumotlarga ko‘ra, kichik biznes korxonalarining yarmidan ko‘pi xarajatlarini kamaytirishni ko‘rsatgan bo‘lsa, qolgan yarmi biznes moliyaviy barqarorlikni saqlashning innovasion usullaridan (ushbu yo‘nalish ham aslida xarajatlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan) foydalangan. Xarajatlarni kamaytirish uchun ofis xarajatlarini kamaytirishdan boshlagan, masalan ofisda o‘tirib ishlashdan ko‘ra masofaviy ish modellarini qabul qilishgan. Shu bilan birga, tejamkor ishlab chiqarish yoki yetkazib berish variantlarini izlashgan bo‘lsa, bu samaradorlikni oshirish va ish vaqtini qisqartirishga qaratilgan vazifalar orqali sun‘iy intellekt kabi texnologiyalardan (innovasion usul) foydalandilar.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi fondlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan venchur kapital fondlari bilan kreditlash, ijarani moliyalashtirish yoki qo‘shma investisiyalarni ta’minlovchi moliyaviy vositachilarga kafolatlar keltirish kabi yo‘llar bilan kichik biznes moliyalashtirilishi mumkin. Banklar, lizing beruvchilar, o‘zaro kafolat jamiyatlari, mikromoliya provayderlari va venchur kapital fondlari kabi nufuzli moliyaviy vositachilar yakuniy yordam ko‘rsatadi. Kichik biznes korxonalarini ushbu moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun strategiyalar ishlab chiqib, ularga moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun bir qancha vazifalar va yo‘nalishlar belgilab oladi.

Bular:

ishlab chiqarishga moliyaviy resurslarni to‘g‘ri yo‘naltirish;

korxonadagi xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash;

ishlab chiqarilgan tovarlarga to‘g‘ri bozorni tanlash;

xizmat ko‘rsatish sohasida kelajakni to‘g‘ri baholagan holda moliyaviy resurslarni taqsimlash;

olingan qarz mablag‘larini o‘z vaqtida qaytarish;

<sup>3</sup> U.S. Small Business Administration Office of Advocacy (AKSH Kichik biznesni boshqariش b‘yicha advokatlik idorasi) – <https://advocacy.sba.gov/>

<sup>4</sup> U.S. Small Business Administration Office of Advocacy (AKSH Kichik biznesni boshqariش b‘yicha advokatlik idorasi) – <https://advocacy.sba.gov/>



berilgan qarz mablag'larini o'z vaqtida qaytarib olish;

innovasion yondashuvlarga moliyaviy resurslarni taqsimlashda katta e'tibor berish kabi yo'nalishlar belgilab olinadi.

Yaponiyada kichik biznes sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, ushbu sektor bo'yicha davlat tomonidan juda katta e'tibor beriladi. Yaponiyada kichik biznesni moliyalashtirish asosan fan, texnologiya va innovasion sohalardagi kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ko'pgina yirik korporatsiyalar fundamental tadqiqotlar uchun ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil qiladi, ular maqomi bo'yicha kichik biznes deb tasniflanadi, kompaniya esa ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalar tarmog'iga ega bo'ladi. Davlat bunday ilmiy-tadqiqot institutlarini imtiyozli kreditlar va ba'zan subsidiyalar bilan ta'minlaydi.

Yaponiya hukumati kichik, ko'p bilim talab qiladigan kompaniyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Venchur korxonalar markazi yordamida kichik venchur tadbirkorlikni rag'batlantirishda davlat, yirik kompaniyalar, shuningdek, akademik va universitet ilm-faning sa'y-harakatlari birlashtiriladi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari moliyaviy yordam so'rab davlat organlariga murojaat qilganda kafil bo'lgan Yaponiya savdo-sanoat palatalari tomonidan jiddiy moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Savdo-sanoat palatalarining tavsiyasisiz bir yildan kam muddatga faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'yektlari uskunalarni modernizatsiya qilish uchun foizsiz kredit ololmaydi.

Samarali moliyaviy qo'llab-quvvatlash Yaponiya kichik biznesi bugungi kunda mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 55 foizini ishlab chiqarishiga olib keldi. Bu esa, mamlakatdagi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash to'g'ri yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi. Yaponiyada kichik biznes sohasidagi korxonalar ushbu jalb qilingan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda, birinchi navbatda korxonadagi kadrlar salohiyatini yanada oshirishga qaratiladi, ikkinchidan ilmiy tadqiqot orqali innovasion yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaydi va ular orqali moliyaviy resurslarning samaradorligini bir necha barobarga oshirib olish imkonini bilishadi.

Janubiy Koreyada kichik biznes ushbu davlat iqtisodiyotining tayanchiga aylandi va uni birinchi o'ringa olib chiqdi. Kichik korxonalar barcha ishlab chiqarish korxonalarining 95 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

Davlat kichik biznes byurosi orqali kichik biznesni faol qo'llab-quvvatlamogda, u kichik biznesni tashkil etish tashabbusi bilan shug'ullanadi, bu jarayonga yordam beradi, banklarga kafil bo'ladi, qaytarilmaydigan subsidiyalar beradi va turli ma'muriy yordam ko'rsatadi. Misol uchun, kichik biznes sub'yektlarini ro'yxatga olishga yordam beradi, ularni ishni qanday boshlash kerakligi to'g'risida tushunchalar beradi, moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha maslahatlar beradi, mutaxassislarini o'qitadi va boshqalar.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash sohasida to'rtta umumdavlat tashkiloti faqat kichik biznesga yo'naltirilgan: Koreya sanoat banki, Fuqarolar milliy banki, Koreya kredit kafolat jamg'armasi (kichik biznesga beriladigan barcha kreditlarni kafolatlaydi va u orqali davlat biznesning rivojlanishiga ta'sir qiladi) va Koreya texnologiyalari kredit fondi. Ushbu kredit jamg'armasi birinchi navbatda kichik biznesda yangi texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. Bundan tashqari, Janubiy Koreyada kichik biznes mahsulotlari eksportini rag'batlantiradigan yirik tashqi savdo tashkilotlari ham faoliyat yuritmoqda.

Koreya kichik biznes tashqi savdo assosiatsiyasi, Koreya savdo korporatsiyasi va Koreya kichik biznes xalqaro savdo korporatsiyasi kabi tashkilotlar kichik biznes sohasidagi korxonalarni jahon bozoriga chiqishga ko'maklashish uchun soliqlarni pasaytirish, bojxona tariflarini pasaytirish, imtiyozli kreditlar berish, shuningdek, boshqa mamlakatlardan Janubiy Koreyaga foyda olib kirishga ko'maklashish, bozorni o'rganish, tadbirkorlarni ma'lumot bilan ta'minlash kabi yo'nalishlarga qarashadi.

Bundan tashqari, bir profilli kichik firmalarga xorijiy texnologiyalarni, birinchi navbatda, elektronika sanoatini sotib olishda moliyaviy yordam ko'rsatish amaliyotida qo'llaniladi. Shu maqsadda yangi bilim talab qiladigan jarayonlarni amalga oshirishga kirishayotgan milliy firmalarni moliyaviy va texnologik qo'llab-quvvatlash uchun maxsus jamg'arma tashkil etilgan.



Mamlakatda yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirish, yangi yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va yangi ishlab chiqarish uskunalarni joriy etish uchun mo'ljallangan maxsus qo'llab-quvvatlash kreditlarini berishni amaliyotga yo'lga qo'ygan. Davlat moliyaviy vositalar yordamida kichik korxonalarni innovasion mahsulotlar yaratish va mahsulot eksporti hajmini oshirishga yo'naltiradi. Ushbu mamlakatda kichik biznesning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishda asosan davlatning, ya'ni yuqorida qayd etilgan tashkilotlarning roli juda muhim, chunki moliyaviy resurlarni qanday boshqarish, qaysi yo'nalishda resurslarni yo'naltirish lozimligi bo'yicha savollarga javobni Koreya kichik biznes tashqi savdo assotsiatsiyasi, Koreya savdo korporatsiyasi va Koreya kichik biznes xalqaro savdo korporatsiyasi kabi tashkilotlar beradi va shu bo'yicha kichik biznes sub'yektlari ish olib boradi. Ko'rinib turibdiki, Janubiy Koreyada ushbu yo'nalish bo'yicha qilinayotgan ishlar tizimli yo'lga qo'yilgan.

Rossiyada kichik biznes korxonalari deganda mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan, shuningdek ishlarni bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil, alohida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tushuniladi. Ushbu mamlakatda kichik biznesning o'ziga xos xususiyati uning keng jamoatchilik uchun faoliyat sohasi sifatida foydalanish imkoniyatidir, bu uning rivojlanishi katta moliyaviy investisiyalar, shuningdek, katta mehnat va moddiy resurslarni talab qilmasligi bilan tavsiflanadi.

Rossiyada kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Rossiyada kichik biznes an'anaviy bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlardagi kabi evolyusion yo'l bilan emas, balki doimiy o'zgarib turadigan tashqi muhit va mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar natijasida keskin sakrashlarda rivojlangan. Kichik biznesni rivojlantirishda iqtisodiy islohotlarning ma'lum darajada orqada qolishi sabablari ko'p jihatdan davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishdagi kamchiliklar, shuningdek bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan iqtisodiy tartibga solish usullarini qo'llash imkoniyatlarini yetarlicha baholanmaganligi bilan bog'liq.

Fransiyada dastlabki ikki yilda tadbirkorlar, odatda, mahalliy byudjetga soliq to'lashdan va aksiyadorlik jamiyatlari soliqlaridan ozod qilingan, daromad solig'i ham pasaytirilgan stavka bo'yicha hisoblab chiqilgan.

Buyuk Britaniyada kichik biznes federatsiyasi mavjud bo'lib, unda ishtirok etish barcha sohalarida imtiyozlar, huquqiy maslahatlar, sug'urtalashni kafolatlaydi. Davlat banklari kichik biznesni kengaytirishni moliyalashtiradi.

Ispaniyada kichik biznes sub'yektlari tomonidan olinadigan kreditlar uchun kafolat jamiyatlari mol-mulkini garov sifatida taqdim etadi yoki kafillik qilish orqali ularga kafolat beradi. Moliya jamiyatlari kichik biznesga sarmoya kiritadi va subsidiyalar beradi. Kichik biznesni ro'yxatdan o'tkazish va lisenziya olish, shu jumladan, mamlakat norezidentlari uchun 24 soatdan ko'p bo'lmagan vaqtni oladi. Natijada xorijiy fuqarolar ham kichik biznesni rivojlantirishda ishtirok etadi. Ispaniyada kichik korxonalarining eng katta qismi qishloq xo'jaligida bo'lib, 80 foizni tashkil etadi.

Xitoyda axborot xizmati orqali aholi va tadbirkorlarga maslahat xizmatlarini ko'rsatib, kichik biznes sub'yektlari duch keladigan muammolarni tezda bartaraf qilishadi. Xitoy biznesni muvofiqlashtirish va hamkorlik markazida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida xitoylik va xorijiy tashkilotlar o'rtasida hamkorlik qilish uchun alohida shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurash qattiq belgilab qo'yilgan.

Yaponiyada kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bozor qiymatini tartibga solish kichik va o'rta korxonalar sug'urta korporatsiyasi va kreditlarni kafolatlash uyushmasi tomonidan tartibga solinadi hamda ularning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha yo'nalishlarni aytib boradilar. Shu bilan birga, kichik biznesni rivojlantirishning barcha bosqichlarida subsidiyalar ham berib boradi.

Janubiy Koreyada yirik korxonalarining rivojlanishi inqirozga uchragandan so'ng, davlat kichik biznesni qo'llab-quvvatlay boshlagan. Kichik korxonalarining asosiy faoliyati eksportga qaratilgan. Moliyaviy inqirozdan so'ng hukumat ba'zi kichik va o'rta korxonalarni kredit qarzlarning bir qismini to'lash orqali qo'llab-quvvatlagan. Bu esa, kichik biznes sub'yektlarini moliyaviy resurs tomonidan qiyinchiliksiz o'z yo'lida yoki qo'yilgan maqsad bo'yicha borishida turtki bo'lgan.



Rossiyada bugungi kunda kichik biznes sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, ular tomonidan olingan kreditlarni ta'minlash uchun Kafolatlar agentligining mavjudligi, ushbu mamlakatdagi kichik korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishiga yordam bermoqda.

**Taxlilar va natijalar:** Yuqorida o'rganilgan xorijiy tajribalarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda muhim iqtisodiy omillardan biri kichik biznes sohasi ekanligi, mamlakatimizda ham bu sohada berilayotgan e'tibor iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ancha oldin tushinib ishlar olib borilayotganligi juda muhim hisoblanadi. Xususan, kichik biznes faoliyati o'sib borishi va undagi moliyaviy resurslarning oshishi, shu bilan birga yanada samarali biznesga aylanishi, mamlakatning ichki bozorini tovar va xizmatlar bilan to'yintirish, bundan tashqari eksportni oshirish orqali uning rivojiga hissa qo'shishi, ish bilan bandlik darajasining oshishi, bu esa, mamlakat aholisining umumiy daromadining oshishiga va natijada aholining turmush darajasining oshishiga olib keladi. Bularning barchasi kichik biznes sub'yektlari tomonidan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish natijasida sodir bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, xorijiy davlatlarda kichik biznes sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi aniq bir tizim yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu esa raqobatni kuchayishida ushbu yo'nalishni rivojlanishini ta'minlaydi. Ya'ni, ushbu tizimda rivojlangan mamlakatlardagi kichik biznes sub'yektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash aniq yo'nalish bo'yicha ajratiladi. Bu yo'nalishlar uchun kichik biznes sub'yektlari moliyaviy resurslarini yo'naltirib o'z faoliyatini takomillashtirib boradi va ulardan samarali foydalanish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqib, ishlarni ushbu strategiyada belgilab olingan vazifalar bo'yicha olib boradi. Yuqorida o'rganilgan mamlakatlar tajribasi O'zbekiston kichik biznesini rivojlantirish uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Tahlil qilingan xorijiy adabiyotlar, tadqiqotlar va boshqa ilmiy ishlardan kelib chiqib, fikrimizcha mamlakatimizda kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish maqsadida "Kichik biznesga ko'maklashish markazi"ni tashkil qilish hamda bu mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishida bo'lishi taklif etiladi. "Kichik biznesga ko'maklashish markazi" faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi"ni yo'lga qo'yish kerak bo'ladi. Bularning barchasi kichik biznes sub'yektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish uchun doimiy faoliyat olib boradi. Bunda esa, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun "uzluksiz xizmatlar zanjiri"ni yaratishga olib keladi.

**Xulosa** o'rnida shuni aytish mumkinki, jahon amaliyotida va rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes sub'yektlarini rivojlantirishga qaratilgan aniq mexanizm va tizim mavjud. Bular orqali esa, mamlakat hamda uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini yechishda, yangi ish o'rinlarini yaratishda, hozirgi nobarqaror jahon iqtisodiyotiga moslashishga hamda ushbu sohani yuqori samaradorlikka yo'naltirishga katta hissa qo'shadi. Tahlillar davomida ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes sohasining tutgan o'rni juda muhim va uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli katta hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalar shakllantirildi:

AQSHda yangi ochilgan kichik biznes sub'ektlari uchun birinchi yilda soliq imtiyozlari 50 foiz beriladi;

Fransiyada tadbirkorlar dastlabki ikki yilda mahalliy byudjetga soliq to'lashdan va aksiyadorlik jamiyatlari soliqlaridan ozod qilingan, shuningdek, daromad solig'i ham pasaytirilgan stavka bo'yicha hisoblanadi;

Buyuk Britaniyada kichik biznes federatsiyasi tashkil qilingan bo'lib, unga a'zo korxonalar barcha sohalarda imtiyozlar va huquqiy maslahatlar oladi;

Ispaniyada kichik biznes sub'yektlari qo'llab-quvvatlash uchun "Kafolat jamiyatlari" tashkil qilingan, bular korxonalar tomonidan olingan kreditlar uchun mol-mulkini garov sifatida taqdim etadi yoki kafillik qilish orqali ularga kafolat beradi;



Xitoyda kichik biznes sub'yektlari qo'llab-quvvatlash uchun "Biznesni muvofiqlashtirish va hamkorlik markazi" tashkil qilingan bo'lib, kichik biznes sub'yektlari mahsulotlarini eksport qilishiga ko'maklashib, ular uchraydigan muammolarni bartaraf qiladi;

Yaponiyada kichik biznes sub'yektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bozor qiymatini tartibga solish kichik va o'rta korxonalar sug'urta korporatsiyasi va kreditlarni kafolatlash uyushmasi tomonidan tartibga solinadi;

Janubiy Koreyada kichik korxonalarining asosiy faoliyati eksportga qaratilgan bo'lib, moliyaviy inqirozdan so'ng hukumat ba'zi kichik va o'rta korxonalarni kredit qarzlarning bir qismini to'lash orqali qo'llab-quvvatlagan;

kichik biznes bozordagi tebranishlar va inqirozlarga ko'proq moyil bo'lib, aksariyat yirik korxonalariga xos bo'lgan aksiyadorlik kuchiga ega emas, shuning uchun kichik biznes korxonalari muhim ijtimoiy funksiyaga ega bo'lib, mamlakatlardagi aholining qariyb 50-60 foizini ish bilan ta'minlaydi;

barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznesning ulushi o'rta 50-60 foizni tashkil qiladi, shu bilan birga kichik biznesni moliyaviy resurslar bilan qo'llab-quvvatlash uchun kreditning minimal stavkasi 2-6 foiz;

kichik biznesni moliyalashtirishni talab qiladigan kundalik operasion faoliyatdir. Ushbu faoliyat xomashyo sotib olish, ish haqi to'lash, majburiyatlarni vaqtida to'lab borish, mijozlardan pul yig'ish va hokazolarni o'z ichiga oladi;

kichik biznesning omon qolishi, uni rivojlantirish va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish uchun yetarli miqdorda aktiv hamda pul bo'lishi muhim hisoblanadi;

kichik biznes sub'yektlari moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

### Foydalangan adabiyotlar

1. U.S. Small Business Administration Office of Advocacy (AQSH Kichik biznesni boshqarish bo'yicha advokatlik idorasi) – <https://advocacy.sba.gov/>
2. U.S. Small Business Administration Office of Advocacy (AQSH Kichik biznesni boshqarish bo'yicha advokatlik idorasi) – <https://advocacy.sba.gov/>
3. U.S. Small Business Administration Office of Advocacy (AQSH Kichik biznesni boshqarish bo'yicha advokatlik idorasi) – <https://advocacy.sba.gov/>
4. Margaret Godwin-Opara. "A Resource-Based Perspective on Financial Resource Strategies for Small Business Sustainability". Chief Academic Officer Eric Riedel, Ph.D. Walden University September 2016. Page 129. <https://scholarworks.waldenu.edu/dissertations>
5. Jennifer Cummings. "Financial Strategies for Sustaining Small Businesses". Chief Academic Officer Eric Riedel, Ph.D. Walden University July 2018. Page 101. <https://scholarworks.waldenu.edu/dissertations>
6. Margaret Godwin-Opara. "A Resource-Based Perspective on Financial Resource Strategies for Small Business Sustainability". Chief Academic Officer Eric Riedel, Ph.D. Walden University September 2016. Page 129. <https://scholarworks.waldenu.edu/dissertations>
7. Margaret Godwin-Opara. "A Resource-Based Perspective on Financial Resource Strategies for Small Business Sustainability". Chief Academic Officer Eric Riedel, Ph.D. Walden University September 2016. Page 129. <https://scholarworks.waldenu.edu/dissertations>
8. Sandra Elizabeth Siddons. "Financial Strategies to Sustain Small Businesses Beyond 5 Years". Chief Academic Officer and Provost Sue Subocz, Ph.D. Walden University December 2021. Page 130.
9. Margaret Godwin-Opara. "A Resource-Based Perspective on Financial Resource Strategies for Small Business Sustainability". Chief Academic Officer Eric Riedel, Ph.D. Walden University September 2016. Page 129. <https://scholarworks.waldenu.edu/dissertations>



10. Margaret Godwin-Opara. "A Resource-Based Perspective on Financial Resource Strategies for Small Business Sustainability". Chief Academic Officer Eric Riedel, Ph.D. Walden University September 2016. Page 129. <https://scholarworks.waldenu.edu/dissertations>

